

**TXVUda “Ma’rifat ulashib” loyihasini amalga oshirish maqsadida o‘zbek adiblari bilan
bo‘lib o‘tgan ijodiy uchrashuv**

B A Y O N N O M A S I

2025 yil 15-oktabr

2025-yil 15-oktabr kuni Shayxontohur tumanidagi 192-maktab o‘quvchilari bilan “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida o‘zbek adiblari bilan ijodiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tadbirda taniqli adib va shoirlar Umida Abduazimova, Adiba Umirova hamda yozuvchi Islom Hamroyev ishtirok etdilar.





Uchrashuv davomida adiblar yoshlar bilan o'z ijodiy faoliyatlari, adabiyotning jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari haqida samimiy suhbatlashdilar. Shuningdek, adiblar o'z asarlaridan namunalar o'qib berdilar hamda o'quvchilarning savollariga javob berdilar.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar adiblarga minnatdorchilik bildirib, bunday ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishda va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.





Ushbu uchrashuv orqali oquvchilar o'zbek adabiyotining boy merosi, ijod jarayoni hamda adiblarning hayotiy tajribalari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'ldilar. Tadbir yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, ma'naviy dunyosini boyitish hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.



“Ma’rifat ulashib” loyihasi mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalari hamda umumta’lim maktablarida kitob mutolaasini targ’ib qilish, badiiy savodxonlikni oshirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni maqsad qilganligi tadbir davomida yana bir bor ta’kidlab o’tildi. Adiblar bilan bo’lib otgan ijodiy uchrashuv barchada yaxshi taassurot qoldirdi.

**TXVU Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo’yicha birinchi Prorektori:**

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova